



UDK:101.3

Surayyo BERDIKULOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti
E-mail:s.berdikulova@gmail.com

O'zMU professori B.To'ychiyev taqrizi asosida

IJTIMOYIY ME'YORLAR VA IJTIMOYIY ONG O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKLAR

Аннотация

Ijtimoiy ong me'yorlarning qabul qilinishi, ularning qadriyat sifatida shakllanishi va hayotda mustahkamlanishida muhim vosita vazifasini bajaradi. Mazkur maqolada ijtimoiy me'yorlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi o'zaro ta'sirning mazmun-mohiyati, ijtimoiy me'yorlar jamiyat hayotini tartibga soluvchi asosiy omil bo'lib, ularning amalda samarali qo'llanishi ijtimoiy ong darajasi bilan chambarchas bog'liqligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy me'yorlar, ijtimoiy ong, qadriyat, ijtimoiylashuv, jamiyat taraqqiyoti, ong va amaliyot, ijtimoiy tartib.

ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ СОЦИАЛЬНЫМИ НОРМАМИ И ОБЩЕСТВЕННЫМ СОЗНАНИЕМ

Аннотация

Социальное сознание играет важную роль в принятии норм, их формировании как ценностей и закреплении в жизни. В данной статье анализируется сущность и содержание взаимного влияния социальных норм и социального сознания. Подчеркивается, что социальные нормы выступают основным фактором регулирования общественной жизни, а их эффективное применение на практике тесно связано с уровнем социального сознания.

Ключевые слова: Социальные нормы, социальное сознание, ценность, социализация, развитие общества, сознание и практика, социальный порядок.

RELATIONSHIPS BETWEEN SOCIAL NORMS AND SOCIAL CONSCIOUSNESS

Annotation

Social consciousness plays an important role in the acceptance of norms, their formation as values, and their consolidation in life. This article analyzes the essence and content of the interaction between social norms and social consciousness. It is emphasized that social norms serve as a key factor in regulating social life, while their effective implementation in practice is closely connected with the level of social consciousness.

Key words: Social norms, social consciousness, value, socialization, social development, consciousness and practice, social order.

Kirish. Ma'lumki, ijtimoiy ong – bu jamiyat a'zolarining voqelikka, jamiyat munosabatlariga, qadriyatlarga nisbatan shakllangan qarashlar, g'oyalar va tasavvurlar tizimidir. Ijtimoiy me'yorlar esa, jamiyatda qabul qilingan, barqarorlashgan xulq-atvor qoidalari bo'lib, ular ijtimoiy ongda shakllanadi va uning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu tushunchalarining o'zaro bog'liqlik mohiyati shundaki, ijtimoiy ong me'yorlar shakllanishi uchun ma'naviy va g'oyaviy asos yaratadi. Me'yorlar esa jamiyat ongning hayotdagi institutsional ifodasidir. Ular bir-birini to'ldirib, jamiyatda axloqiy, huquqiy va madaniy tartibni ta'minlaydi. Ongni muayyanlashtiradigan narsa jamiyatning moddiy hayotidir. Lekin jamiyatning ongi ham o'ziga xos ta'sirga ega – u ijtimoiy munosabatlarni saqlash uchun me'yorlar va an'analar orqali o'zini ifoda etadi.

Adabiyotlar tahlili. “Me'yorlar – bu ijtimoiy ongning umumlashgan shakli bo'lib, ular individuallarga qanday yashash kerakligini belgilab beradi”[1].

Dyurkgeymning yuqoridagi qarashida ijtimoiy me'yorlarni jamiyat ongining umumlashgan va institutsionallashgan ko'rinishi sifatida qarayotganini ko'rish mumkin. “Odamlar ijtimoiy me'yorlarga amal qiladi, chunki ongda boshqalar ham shunday qiladi deb ishonch mavjud[2].” Uning qarashicha, ijtimoiy ongda kutilmalar — ijtimoiy me'yorlarning barqarorligini ta'minlaydi. Demak, aytishimiz mumkinki, ijtimoiy ong — ma'naviy-mazmunli asos bo'lsa, ijtimoiy me'yorlar — tashqi institutsional shaklni ifoda etadi.

Ular o'zaro dialektik bog'liq, ya'ni ong me'yorni yaratadi, me'yor ongni tarbiyalaydi, o'z navbatida ongda o'zgarishlar me'yorlarga ta'sir qiladi (masalan, gender, din, huquq sohalarida) hamda me'yorlar ham ijtimoiy ongning tarixiy-farqlanuvchi ko'rinishlarini modifikatsiya qilib turishga majbur qiladi.

Ijtimoiy ong axloqdan oziqlanib, fuqarolarning bir-biriga munosabatlarini me'yorlashtiradigan ma'naviy ta'sir orqali me'yorlarni shakllantiradi. Me'yorni ongda axloqiy tushunchaning tashqi hayotga tadbiiq etilgan shakli deyish mumkin. Jamiyat ongida etik prinsiplar — muomala madaniyati, insof, sadoqat kabi normalarga aylanadi. Ijtimoiy ong milliy yoki diniy an'analarni ma'naviy qadriyat sifatida saqlab, ularni ijtimoiy me'yorlarga aylantiradi. Jamiyatda ma'naviy xotira me'yorlar shaklida namoyon bo'ladi va jamoaviy xatti-harakatni barqarorlashtiradi. Urf-odat, milliy an'analar va qadimiy ma'naviy meros ijtimoiy ongda yashab, me'yorga aylanadi (masalan, keksaga hurmat, mehmonchilik).

Ijtimoiy ongda insoniy ideallar (adolat, halollik, bag'rikenglik) jamiyatda ayni shu tushunchalarni xulq-atvor me'yori sifatida belgilaydi. “Ma'naviy ideallar jamiyatdagi me'yorlarga hayotbaxsh ruh bag'ishlaydi”[3]. Jamiyatning ma'naviy yuksalishi me'yorlarning mazmunini va gumanistik yuksalishiga olib keladi. Ijtimoiy ong ma'lum me'yorlarni ma'naviy nuqtai nazardan tanqid qilib, ularni yangilash, isloh qilish zarurligini ko'rsatadi. “Agar me'yor ma'naviy anglash bilan muvofiq kelmasa, u qayta baholanishi lozim”[4].

Masalan, ayollarni kamsituvchi yoki zo'rvonlikni oqlaydigan me'yorlar ma'naviy ong tomonidan tanqid qilinadi.

Ayrim hollarda jamiyatda davlat tomonidan ilgari surilgan mafkura ijtimoiy ongda markaziy o'rin tutadi va turmush tarzi, ta'lim, axloq, huquq, muomala kabi sohalarida me'yorlar orqali amalga oshiriladi. "Har bir davlat o'z ideologiyasiga mos me'yorlarni qonun, ta'lim va targ'ibot orqali mustahkamlaydi".[5] Ijtimoiy ongda davlat mafkurasi jamiyat me'yorlariga standart va rasmiy shakl beradi deyish mumkin.

Jamiyatda g'oyaviy ongning ijtimoiy intizomga ta'siri kuzatilib, ijtimoiy ongda shakllangan g'oyalar shaxsiy va guruhij harakatlarga yo'nalish beradi. Bu g'oyalar insonlarni o'zini tutishi, guruhga moslashishi, tartibga rioya qilishida me'yorlar sifatida namoyon bo'ladi. Uni qaysidir ma'noda ijtimoiy intizom deyish mumkin, u faqat huquqiy emas, balki g'oyaviy-ongiy ta'sirda ham shakllanadi. O'z navbatida dunyoqarashning me'yorlarga ta'siri mavjud bo'lib, ijtimoiy ongda dunyoqarash — inson va jamiyat haqidagi umumiy tasavvurlar tizimi — qanday me'yorlar ustuvor bo'lishini belgilaydi. Masalan, individualizm yoki kollektivizm asosida turli xulq normalari yaratiladi. Jamiyatdagi global yoki milliy ong turlari me'yorlar tizimini yo'naltiradi.

Ijtimoiy ong jamiyatning tarixiy tajribalari, qadimiy an'analari va jamoaviy xotirasining ruhiy shakli sifatida ijtimoiy me'yorlarning yaratilishi, saqlanishi va qayta shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Uning ta'siri bir necha tarixiy va mafkuraviy qirralarda namoyon bo'ladi. Jamiyat o'tmishdagi tajribasini unutish orqali emas, balki xotira orqali qayta jonlantiradi. Bu xotira ijtimoiy ongda mustahkamlanib, me'yor shaklida avloddan avlodga o'tadi. Ma'lumki, ijtimoiy xotira — o'tmishdagi jamoaviy tajribalarni hozirgi xulq-atvor me'yorlariga aylantiruvchi barqarorlashtiruvchi kuch sifatida xizmat qiladi. Urf-odatlar, an'analar va madaniy qadriyatlar — ijtimoiy ongda tarixiy xotiraning me'yorlashgan ko'rinishidir.

Ijtimoiy ongda tarixiy voqealar nafaqat xotira sifatida, balki muayyan g'oyaviy-interpretatsiya sifatida yashaydi. Bu tarixiy g'oyalar davlat siyosati, targ'ibot va ta'lim orqali me'yorlarga aylanadi. Davlatlar ta'lim va qonun orqali tarixiy talqinlarni institusionallashtiradi va shu orqali tarixiy ongni ijtimoiy me'yorlarga aylantiradi. Masalan, "Vatanparvarlik" g'oyasi ta'lim tizimi va qonunlar orqali me'yoriy nuqtai nazarga aylanadi. Yangi tarixiy davrlarda ijtimoiy ong modern g'oyalar bilan to'ldiriladi: gender tengligi, inson huquqlari, ekologik mas'uliyat. Bu g'oyalar mustahkamlashib, yangi ijtimoiy me'yorlarga asos bo'ladi. Zamonaviy ijtimoiy tasavvur yangilanayotgan demokratik va insonparvar g'oyalarga mos keluvchi me'yorlarni vujudga keltiradi. XXI asrda ongda "inson qadri" tushunchasi yangi me'yorlarga — gender tengligi, imkoniyatlar barobarligi kabi qoidalarga olib keldi.

Umuman olganda, ijtimoiy ongning tarixiy asoslari me'yorlarning mazmuniy va dinamik xususiyatini belgilaydi. U urf-odatlar va an'analar orqali me'yorlarni saqlaydi, tarixiy voqealar orqali yangilaydi, mafkuraviy interpretatsiyalar orqali institusionallashtiradi hamda modern g'oyalar orqali me'yorlarni globallashtiradi. Shu sababli, ijtimoiy ong faqat ma'naviy tuzilma emas, balki me'yorlarni tarixiy voqelikka moslashtiruvchi falsafiy mexanizm hamdir.

Ma'lumki, intellektual ong — inson va jamiyatning aqliy, tahliliy, falsafiy va ilmiy salohiyati orqali shakllangan ong shakli bo'lib, u ijtimoiy hayotdagi me'yorlarni rivojlantirish, qayta ko'rib chiqish va yangi shaklda ifoda etishda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy ongning intellektual qirralari ijtimoiy me'yorlarga bir nechta asosiy yo'nalishlarda ta'sir ko'rsatadi. Bu ong shakli rasionallashtirish va me'yorlar asosini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, u muayyan ijtimoiy

me'yorlarning mantiqiy asosini belgilaydi. Ya'ni, nima uchun bu me'yor kerak, u qanday oqibatlariga olib keladi, u qanday axloqiy yoki ijtimoiy maqsadlarga xizmat qiladi — ana shu savollarga javob intellektual tahlil orqali yaratiladi. "Ijtimoiy me'yorlar aqliy asoslanish va ochiq jamoat muhokamasi orqali qo'llab-quvvatlanganda, ular an'ana doirasidagina emas, balki legitim — ya'ni aqlga va adolatga mos qonuniy me'yor sifatida qabul qilinadi"[6]. Me'yorlarning haqqoniyligi ularning aql bilan asoslanishiga bog'liq.

Bizning fikrimizcha, falsafiy tanqid va qayta baholash me'yorlarni yangilashga qaratiladi. Ijtimoiy ongda intellektual salohiyat orqali mavjud me'yorlar tanqidiy tahlil qilinadi. Bu tanqid ba'zan yangi ijtimoiy talablarga javob bermaydigan yoki hukmron guruh manfaatidagi me'yorlarni qayta ko'rib chiqishga olib keladi. Intellektual tanqid me'yorlar adolatligini baholash va isloh qilishga xizmat qiladi.

Ta'lim va tarbiya orqali me'yorlarni aqliy ravishda singdirish asosiy vositalardan biri bo'lib, ta'lim — intellektual ongni shakllantiruvchi va me'yorlarni aql orqali qabul qildiruvchi mexanizmdir. Maktab va universitetlar orqali fuqarolar faqat me'yorlarga bo'ysunmaydi, balki uning mantiqiy va axloqiy zarurligini tushunishga o'rgatiladi. "Ta'lim — jamiyatlar tomonidan aqliy asoslangan ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirishdagi eng samarali vositadir"[7]. Inson aql bilan tushunib qabul qilgan me'yorlarni ixtiyoriy ravishda bajaradi.

Demak, ijtimoiy ongning intellektual qirrasini ijtimoiy me'yorlarga quyidagi ta'sir yo'nalishlari orqali ta'sir qiladi: rasionallashtirish bilan me'yorlar aql bilan asoslanadi va qabul qilinadi, tanqidiy qayta baholash bilan me'yorlar falsafiy tanqid orqali qayta ko'rib chiqiladi, ilmiy me'yorlar yaratish orqali ilmiy bilimlar asosida yangi ijtimoiy me'yorlar ishlab chiqiladi. Intellektual elita ta'sirida ularning ilmiy g'oyalari me'yor sifatida shakllansa, ta'lim orqali normalashuv kuzatilib, me'yorlar ta'lim tizimi orqali ongga aqliy singdiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot jamiyatda ijtimoiy ong va ijtimoiy me'yorning jamiyat barqarorligiga ta'siri, taraqqiyot sari yetaklashi metodologik jihatdan o'rganilgan. Tadqiqot davomida analiz va sintez, mantiqiylik, tarixiylik kabi metodologik yondashuvlardan foydalaniladi.

Natijalar va muhokama. O'z navbatida axloqiy ong me'yorlarni legitimlashtiradi, agar me'yorlar axloqiy ongda maqbul deb topilsa, ular keng jamoa tomonidan qabul qilinadi va ijtimoiy bosim orqali mustahkamlanadi. Faqat axloqiy jihatdan asoslangan deb qabul qilingan me'yorlarga ijtimoiy legitimlik va barqarorlikka ega bo'lishi mumkin. Masalan, fuqarolik burchlari, muhtojlarga yordam berish, rostgo'ylik kabi me'yorlar axloqiy legitimlikka ega bo'lgan holda amal qiladi. Shu bilan birga, axloqiy ong ijtimoiy islohotlarga ham turtki beradi. Jamiyat ongida muayyan axloqiy o'zgarishlar sodir bo'lsa (masalan, zo'rvonlikka qarshi tushunchalar), bu o'zgarishlar me'yorlarga ham ta'sir ko'rsatib, yangi qoidalarning qabul qilinishiga olib keladi. "Axloqiy inqiloblar eski me'yorlarni adolatsiz deb rad etuvchi va yangi, insonparvar standartlarni ilgari suradigan shaxslar ongida boshlanadi"[8] Masalan, irqchilikka qarshi kurash, inson huquqlari, bolalarni himoya qilish kabi me'yorlar aynan axloqiy ong evolyusiyasi natijasidir.

Demak, ijtimoiy ongning axloqiy ta'siri ijtimoiy me'yorlarga axloqiy asos yaratish, ya'ni axloq me'yorlarning ma'naviy poydevori bo'lishi, ideallarga moslashtirish, ya'ni ijtimoiy ideallar me'yor shaklida namoyon bo'lishi, ichki nazoratni shakllantirish, ya'ni vijdon — ongda me'yorlarning ichki ifodasi bo'lishi, legitimlashtirish, ya'ni axloqiy asoslangan me'yorlar jamiyatda qabul qilinishi hamda islohotlarga turtki berish, ya'ni axloqiy ong o'zgarishi yangi me'yorlar yaratishga turtki berishi kabi asosiy yo'nalishlarda ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy ongning ijtimoiy me'yorlarga media va axborot ta'siri ommaviy ongndagi tendensiyalar orqali me'yorlarga ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy ongning shakllanishida ommaviy axborot vositalari muhim o'rin tutadi. Internet va mediamuxitdagi ong o'zgarishlari tezkor ravishda yangi me'yorlarni vujudga keltiradi. Axborot makonidagi ong o'zgarishlari – ijtimoiy me'yorlarning mobil va tez o'zgaruvchan tus olishiga olib keladi. Axborot texnologiyalari (televideniye, internet, ijtimoiy tarmoqlar) ijtimoiy ongndagi tasavvurlarni qayta shakllantiradi. Bu tasavvurlar orqali jamiyatda qanday xulq maqbul, qanday xulq rad etiladi — degan qarashlar, ya'ni me'yorlar tezkor va keng miqyosda shakllanadi. Ommaviy axborot vositalari odamlar nimani oddiy, qabul qilingan yoki og'riqli deb qabul qilishini uzluksiz ravishda shakllantirish orqali ijtimoiy me'yorlarni yaratadi. Masalan, ommaviy seriallardagi munosabatlar, liboslar va muomala madaniyati ong orqali normallashadi.

Media jahon miqyosidagi xulq-atvor normalarini bir mamlakatdan ikkinchisiga olib o'tadi. Bu jarayonda ijtimoiy ongda tashqi madaniy ta'sirlar singib, mahalliy me'yorlarni o'zgartirishi mumkin. Internet orqali tarqalayotgan liberal, postmodern yoki individualistik qarashlar mahalliy me'yorlarga ta'sir qiladi. Ijtimoiy tarmoqlarda algoritmlar, trolllar va feyk axborot orqali odamlar ongida sun'iy talab va "me'yoriy" tasavvurlar yaratiladi. Ba'zan ommaviy manipulyasiyalar orqali jamiyatda noto'g'ri, lekin modaga aylangan me'yorlar shakllanadi. Bu holatda me'yorlar jamiyatning o'z faol ongiga tayanib emas, manipulyasiya vositasida qabul qilinadi.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali shaxsiy fikrlar umumiy fikrga aylanadi, bu esa axloqiy, madaniy va siyosiy me'yorlarga ta'sir

ko'rsatadi. "Trend", "virusli kontent" – ijtimoiy ongni yo'naltiruvchi kuchlardir. Raqamli platformalar trendga aylangan munozaralar va virus tarzda tarqalgan jamoaviy kelishuvlar orqali ijtimoiy me'yorlarning jadal shakllanishini tezlashtiradi. Masalan, biror bir xulq tarzi virusli videolar orqali jamiyatdagi "me'yor" sifatida qabul qilina boshlaydi. Media vositalari — televideniye, reklama, filmlar — normalarni faqat so'z orqali emas, balki obraz, estetika va vizual ramzlar orqali ongga singdiradi. Bu "bilmasdan qabul qilish" yo'li bilan amalga oshadi. Vizual ommaviy axborot vositalari me'yorlarni estetik shaklda ifodalaydi va ularni aqliy asoslashsiz, ong ostiga singdirish orqali inson ongiga uzoq ta'sir ko'rsatadi. Masalan, reklamalardagi nafosat, tananing ideali kabi tasvirlar me'yor sifatida anglanadi.

Demak, ijtimoiy ongning media va axborot ta'siri ostida me'yorlar axborot orqali tezkor me'yorlashadi, myedia inson ongida normal xulq tasavvurini tez shakllantiradi. Shuningdek, global ekspansiya jahon ideallari mahalliy me'yorlarga ta'sir qilsa, manipulyasiya orqali sun'iy me'yor, ya'ni feyk axborot orqali sun'iy normalar yaratiladi. Ayni paytda trendlar orqali normallashish, ya'ni tarmoqlardagi ommaviy fikrlar ongga ta'sir ko'rsatayotgan bo'lsa, vizual kodlash orqali asosida normalarni obraz orqali ongga singdirilmoqda.

Xulosa. Xullas, ijtimoiy ongning ijtimoiy me'yorlarga ma'naviy ta'siri qadriyatlar me'yorni mazmunan yo'naltiradi, ideologik ta'sir esa, mafkura me'yorning xarakteriga ta'sir qilsa, tarixiy ta'sir an'ana va xotira me'yorni saqlaydi. Intellektual ta'sir ilmiy g'oyalar yangi me'yor yaratadi, axloqiy tushunchalar me'yorlarga shakl beradi axborotli ta'sir ommaviy ongndagi o'zgarish me'yorni transformatsiya qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Émile Durkheim. *The Division of Labor in Society*, Free Press, 1997, p. 39
2. Cristina Bicchieri. *The Grammar of Society*, Cambridge University Press, 2006, p. 11
3. Charles Taylor, *Sources of the Self*, Harvard University Press, 1989, p. 92
4. Jürgen Habermas, *Moral Consciousness and Communicative Action*, MIT Press, 1990, p. 124
5. Althusser L. *Ideology and Ideological State Apparatuses*, Monthly Review Press, 1971, -P. 150
6. Jürgen Habermas. *Between Facts and Norms*, MIT Press, 1996, -P. 102
7. John Dewey. "Democracy and Education", Macmillan, 1916, -P. 132
8. Kwame Anthony Appiah. "The Honor Code", W.W. Norton & Company, 2010, -P. 17